

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA NUTQ TEXNIKASINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Anarkulova Gulnaz Mirzaxmatovna p.f.n. dos.

Nizomiy nomidagi TDPU professional ta’lim metodikasi kafedrası prof.v.b.

Xamrakulova Nurshoda Axror kizi

Nizomiy nomidagi TDPU Professional ta’lim fakulteti TMJ-301 gurux talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘o‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda nutq texnika va uni rivojlantirish yo‘llari yoritilgan

Kalit so‘zlar: pedagogik texnika, nutq ,notiqlik, notiqlik san’ati

Аннотация

В данной статье описывается техника речи и пути ее развития при подготовке будущих учителей к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: педагогическая техника, реч, ораторство, ораторское искусство.

Annotation

This article describes speech technique and ways of its development when preparing future teachers for professional activities.

Key words: pedagogical technique, speech, oratory, oratory.

O‘qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik texnikaning ko‘nikma va malakalarini mukammal takomillashtirgan holda o‘z mahoratini oshirish uchun quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1. O‘qituvchi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan pedagogik texnikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri uning nutq texnikasidir (Nutq tempi, diksiyasi, tovush ohangini baland, o‘rta, past qila olishi va hokazo).

Dars jarayonida o‘quv materiallarini idrok qilishda o‘qituvchining nutqi muhim rol o‘ynaydi. Olimlarning fikricha, o‘quvchilar tomonidan 1/2 foiz o‘quv materialini tafakkur orqali idrok qilish va o‘zlashtirish o‘qituvchining nutqiga va uning so‘zlarni



to'g'ri talaffuz qilishiga bog'liq.

Rus aratorlaridan biri A.F. Koni o'z davrida yurist sifatida sudlarda o'z chiqishlari bilan hammaga tanilgan davlat arbobi edi, u quyidagi ta'rifni beradi «So'z - insonning buyuk qurollaridan biri. O'rnida, sidqidildan va vaqtda aytilgan oddiygina so'z qudratli va engilmas kuchga aylanadi. U so'zlovchining o'zini qiziqtirib yuborishi, uni va atrofdagilarni o'z nafisligi bilan mahliyo etishi mumkin». Aflotun esa o'z davrida buyuk faylasuf sifatida notiqlikka quyidagi ta'rifni beradi,: Mening imonim komilki, agar istalgan shaharga notiq va tabib kelsa va Xalq yig'ini yoki boshqa biron majlisda ulardan qay birini tabib etib saylash haqida bahs boshlansa, tabibga hech kim e'tibor ham qilmasdi va so'zning qudratidan foydalanishni bilgan kishiga ovoz berishar edi, u buni istasa bas... Notiq qar qanday raqibga qarshi istalgan masalada bahs yuritishga va ommani har qanday mutaxassisdan ko'ra tezroq inontirishga qodir".

Ta'lim jarayonida esa o'qituvchining asosiy quroli bu nutqidir. Past ohangda gapiradigan o'qituvchining darsi o'quvchilar uchun zerikarli bo'ladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chog'ida ovozni baland qilib so'zlashish o'quvchilarni darsdan bezdiradi va charchatadi. O'quvchilarning bunday o'qituvchi ta'limidan ko'ngillari soviydi. Shuning uchun o'qituvchi savodli gapirishi, o'z nutqini chiroyli va tushunarli, ta'sirchan qilib bayon qilishi, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalariga ega bo'lishi lozim.

Nutqning tarkibiy qismlari: va notiq oldida turgan vazifalar

Kirish:

bo'lajak ma'ruza yoki suhbat mavzusiga qiziqish uyg'otish, auditoriya bilan muloqot o'rnatish, tinglovchilarni nutqni tinglashga tayyorlash.

Asosiy qism: ko'tarilgan masalani asoslash, fikrlarni izchillik bilan bayon etish, ularning to'g'ri ekanligini isbotlash, tinglovchilar tegishli xulosalar chiqarishlarini ta'minlash.


Xulosa: aytilgan fikrlarni umumlashtirish, aytilgan gaplarning ahamiyatini ta'kidlab ko'rsatish; vazifalarni belgilash, faoliyat, harakat yo'nalishlarini belgilab berish.



Inson temperamenti turlariga ko'ra notiq oldiga qo'yiladigan talablar		
Temperament turlari	Xarakterli xususiyatlari	Notiq oldiga qo'yilgan talablar
1. Sangvinik	Xushchaqchaqlik, hayotni sevish, xazil-mutoyibaga moyillik, xarakatchanlik	Materialning rang-barangligi, yumor ...
2. Flegmatik	Jiddiylik, bosiqlik, mulohazakorlik	Jiddiy ohang, mantiqiy bayon, fikrlarni tasdiqlashda jiddiy, salmoqdor misollarni keltirish
3. Xolerik	Ehtiroslilik, harakatchanlik, diqqatni bir nuqtaga uzoq bog'lay olmaslik	Materialni tez bayon etish, ehtirosli nutq
4. Melanxolik	Uyatchanlik, hissiyotga uzoq berilish, yangi sharoit va yangi odamlarga moslashishning qiyinligi	Yumshoqlik, samimiy ohang, alohida e'tibor ...

Notiq va auditoriya o'rtasida muloqotning vujudga kelishi shartlari:

1. Notiq va tinglovchilarning bir xildagi aqliy faoliyat bilan band bo'lishi;
2. Notiq va tinglovchilarning o'xshash, yaqin xislarni tuyishlari.



Auditoriya diqqatini jalb etish usullari:

1. Tinglovchilarga murojaat;
2. Nutq so'zlashdan asosiy maqsadni bayon etish;
3. Diqqatni jalb etuvchi biron voqea-xodisaga (ma'lum voqeaga yoki, joy haqidagi ma'lumotga, obro'li shaxs yoki mashxur manbalarga, o'zidan avvalga ma'ruzachi nutqiga, yangi, qiziq ma'lumotlarga, e'tiborga molik faktga) murojaat etish;
4. Yumor, xazil;
5. Auditoriya murojaat etishiga savol bilan murojaat etish;
6. Pauza va h.k.

Notiq nutqi samarador bo'lishi uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak:



1. Nutq auditoriyaga mos bo'lishi kerak. (auditoriya (tinglovchilar)ning ,yoshi, kasbi, ma'lumoti, diniy e'tiqodi, qiziqish doirasi, daromadi u ,yoki bu tashkilotga a'zoli va h.k.larni bilish lozim).
2. Nutq konkret bo'lishi kerak. (Chunki tinglovchi xotirasida eshitganining juda oz qismi saqlanib qoladi, ammo konkret, aniq takliflarning xotiradan o'rin olishi imkoniyati ko'proq).
3. Nutq ta'sirchan bo'lishi, munosabat uyg'otishi lozim. (Hech kimga ta'sir qilmagan havoga aytilgan bilan barobar, chunki u o'z vazifasini ado etmadi. Nutq munosabat uyg'otishi uchun yangi axborot, uni qabul qilganda ma'lum tuyg'ular uyg'otishi uchun yangi axborot, uni qabul qilganda ma'lum tuyg'ular uyg'onishi va h.k.lar kerak).
4. Nutq aniq maqsadga yo'naltirilishi kerak (nutq tinglovchini inontirishi, unga ma'lumot berishi, unda ma'lum hislarni uyg'otishi va h.k. kerak).
5. Nutq o'qilmaydi, balki tinglanadi. (Shu bois, sof muloqot bilan bog'liq talablar vujudga keladiki, ularni hisobga olish zarur. Masalan, tinglovchi o'quvchidan farqli o'laroq biron narsani tushunmasa, orqaga qaytishining imkoniyati yo'q).

Muloqotni tashkil etishga muloqotga kirishganlarning bir-biriga va ular o'rtasidagi suhbat predmetiga (ob'ektiga) munosabati ijobiy xarakterga ega bo'lsa, unda suhbat ob'ektiga nisbatan ular bir-biriga yaqin munosabat bildirishga harakat qiladilar. Muloqotga kirishganlarning o'zaro munosabati salbiy bo'lsa, aniqrog'i bir-biriga muvofiq kelmasa, ularning gap ketayotgan ob'ektga nisbatan munosabati ham muvofiq kelmaydi. Kengga tarqalgan "dushmanlarimning dushmani – mening do'stlarim" iborasi ayni shu holatni aks ettiradi).

Notiqlik san'ati manbalari:1. Iste'dod; 2. Nazariy ta'lim; 3. Amaliy ta'lim.

Nutq tayyorlash jarayoni bosqichlari: material to'plash; materialni taqsimlash; nutqni tuzish; yodlash; so'zlash.

Chiroyli, savodli, ta'sirchan gapiruvchi o'qituvchilarning fikrlari o'quvchilar ongiga tez etib boradi, o'quv materiallarini o'zlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi, o'quvchilar bunday o'qituvchilarning darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. O'qituvchilar o'z nutqlari ustida tinimsiz ishlashlari, so'zlarning chiroyli, ma'noli, ta'sirchan bo'lishi ustida mashq qilishlari, ovoz diapazonlari kuchi, nutq tembrining harakatchanligi, diksiyasini doimo mashq qilib borishlari lozim.

Ovoz diapazoni chegarasi baland yoki past gapirish toni bilan belgilanadi. Diapazonning qisqarishi tovushning past tonligiga olib keladi. Past ohangda so'zlashish o'qituvchining idrokini bo'shashtiradi va susaytiradi.



O'qituvchi tovush diapazonini, uning tembri bilan bog'lab ishlatsa, gaplari chiroyli, mayin, jozibali chiqib, tinglovchilarni o'ziga jalb etadi va o'quv materiallari mazmuni yanada yaxshi idrok qilinadi.

O'qituvchining ovozida so'zlarni aniq, to'g'ri, tiniq eshitarli va tushunarli bayon qilishida namoyon bo'ladi. To'g'ri va mukammal ovoz diksiyasiga ega bo'lgan o'qituvchi so'zlarni ifodali bayon qiladi. Ifodali gapirishda til, lab, kichik tilcha, pastki jag' ishtirok etadi. O'qituvchi ifodali gapirishi, so'zlarni talaffuz qilishi uchun yuqoridagi organlarni doimo mashq qildirishi lozim.

Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik texnikani shakllantirishning birinchi bosqichi nutq malakalari muhim ahamiyat kashf etar ekan, o'qituvchi doimo gapirish tempi, ritmi, diksiyasi, ovoz kuchi, diapazoni, harakatchanligi ustida mashq qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.Q.Munavvarov. Pedagogika.T.,»O'qituvchi».1996.-55-58betlar.
2. I.P.Podlasiy. Pedagogika. M.»Vlados».Tom 1.2000.-241 bet
3. Tolipov O'.Q., Anarkulova G.M. Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.: Innovatsiya-ziyo., -231 b.
4. Anarkulova G.M. Ta'lim texnologiyalari. O'quv qo'llanma., T.: Innovatsiya-ziyo., -216 b.

